FARG‘ONA VILOYATI MARG‘ILON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 27-may | 92-11-168-Q/25 | Marg‘ilon shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 275-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 275-sonli qarori hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 14-maydagi 254-11-0-Q/25-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 275-sonli qarori hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 14-maydagi 254-11-0-Q/25-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hamda Farg‘ona viloyati hokimligining mazkur qarorlari bilan ilovaga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin:

-yoshlar siyosati va sport vazirligi negizida Sport vazirligi tashkil etilganligi;

-bolalar va o‘smirlar sport maktablari negizida sport maktablari tashkil etilganligi;

-ixtisoslashtirilgan bolalar-o‘smirlar maktablari negizida ixtisoslashtirilgan sport maktablari tashkil etilganligi munosabati bilan qonunchilik hujjatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish;

-sport-ta’lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash miqdorlarini belgilash;

-sport-ta’lim muassasalarining ayrim shtat birliklarini maqbullashtirish.

3. Mazkur qarorga asosan shahar hokimining 2010-yil 8-oktyabr kungi 547-sonli qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hamda Farg‘ona viloyati hokimligining mazkur qarorlariga shahar hokimligi,boshqarma va tashkilotlari, **10 kun muddatda** o‘zlarining idoraviy me’yoriy hujjatlarini muvofiqlashtirilishini ta’minlasinlar.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari T.Beknazarov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **Sh. Nisbatxonov**

Marg‘ilon shahar hokimining
2025-yil 27-maydagi
92-11-168-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Shahar hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

Mazkur qarorga asosan shahar hokimining 2010-yil 8-oktyabr kungi №547-sonli qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.